

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI

“JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA ILG`OR XORIJIY TAJRIBALAR”

moduli bo‘yicha
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Jismoniy tarbiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro– 2024

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil "27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jismoniy tarbiya" yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Ibragimov M.B.** – BuxDU, Sport faoliyati kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Taqrizchilar: **Kadirov R.X** – BuxDU, Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası professori, p.f.n.

Ibragimov B.B. – O'zbekiston regbi federatsiyasi ijrochi direktori, p.f.f.d.(PhD).

MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	48
V. GLOSSARIY	56
VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69

I. ISHCHI DASTUR

I. IShChI DASTUR.

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidyentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik liseylar rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik liseylarda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning “Jismoniy tarbiya va sportda ilg‘or xorijiy tajribalar” fani orqali musobaqalarni o‘tkazish metodlari, zamonaviy o‘yin texnikasi va taktikasi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jismoniy tarbiya va sport ta’lim tizimidagi tajribalarni o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarning “Jismoniy tarbiya va sportda ilg‘or xorijiy tajribalar”ning xorijiy davlatlar amaliyotida sport ta’limi sifatini oshirish borasida erishilgan yutuq va tajribalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- akademik liseylar pedagog xodimlarining sport ta’limi sifatini oshirishda xalqaro tajribalari borasida nazariy bilimlarni shakllantirish;
- akademik liseylar pedagog xodimlarining xalqaro darajadagi pedagogik bilimlarini oshirish va kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish,
- sport ta’limi sifatini oshirishda ilg‘or xalqaro tajribalarini pedagogik jarayonga joriy etish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- akademik liseylar pedagog xodimlarining muntazam kasbiy faoliyatini o‘zlashtirishda xorij tajribalari, zamonaviy ta’lim metodlari, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;

- akademik liseylar pedagog xodimlarining ta'lim jarayonidagi muammolarini ilg'or xorijiy ta'lim tajribalaridan foydalangan holda hal etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishga o'rgatish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompyetyensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Jismoniy tarbiya va sportda ilg'or xorijiy tajribalar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- – jismoniy tarbiya va sport ta'limi o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar;
- – jismoniy tarbiya va sport ta'limida zamonaviy yondashuvlar, sport ta'limini o'qitishda innovasion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar;
- – jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini ta'minlashda ilg'or xorijiy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning metodik shart-sharoitlari bilimlariga ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalar asosida o'quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;
- jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalarni o'rganishda innovasion faoliyatni tashkil etish;
- xorijiy tajribalarni shakllantirish asosida tafakkur yuritish orqali sport ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalar asosida sport ta'limida yangi nazariy va amaliy metodlarni ishlab chiqish va ommalashtirish malakalarini egallashi lozim.

Tinglovchi:

- jismoniy tarbiya va sport ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda xorijiy davlatlar ta'lim tajribalaridan foydalana bilishlari;
- xorijiy davlatlar ta'lim tizimining tajribalaridan foydalangan holda pedagogik muammolarni tahlil etish, baholash kabi malakalarni egallashi;
- jismoniy tarbiya va sport ta'limi sifatini ta'minlashda xorijiy tajribalarni o'rganish asosida talabalarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish kompetensiyalarni egallashi lozim.

O'QUV MODULI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Jami	Umumiy auditoriya soati	Jumladan	
				Nazariy	Amaliy
1.	Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi.	2	2	2	
2.	Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi.	2	2		2
3.	Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar.	2	2		2
	Jami	6	6	2	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi (2-soat nazariy).

REJA:

1. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi taraqqiyoti va ta'lim tizimi strategiyasi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

2-mavzu: Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi. (2-soat nazariy).

REJA:

1. Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati.
2. Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi.

3-mavzu: Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar. (2 soat amaliy).

REJA:

1. Professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasi.

2. Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.

O‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pyedagogik va axborot tyexnologiyalar

Mazkur modul ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni. T., “O‘zbekiston”, 2015 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. T., “O‘zbekiston”, 2017 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. T., “O‘zbekiston”, 2018 y.

4. Riess S. The American sporting experience: a historical anthology of sport in America. N.Y.: Leisure Press, 2014.

5. “Quality physical education” Unesco 2015 Published by the UN educational scientific and cultural organization. Ms Nansy Mclenan and Mc Jannine Thompson.

6. Michael A. Leeds, Peter von Allmen The Economics of Sports. USA. 2015.

7. Presnyakov M.V. Prinsip svobody truda v professionalnom sporte // Trudovoye pravo. 2015. № 8;

8. United States Olympic Training Center Colorado SpringsCdURL: <http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-colorado-springsyu>

9. United States Olympic Training Center Chula Vista <http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-chula-vista>.

10. U.S. Olympic Training Center Lake Placid<http://www.teamusa.org/aboutusoc/u-s-olympic-training-center-lake-placid>.

11. Sports Science Institute of North Africa, Newlands URL: <http://www.ssisa.com>

Internet WEB sayt materiallari

12. <http://www.uzreport.com>
13. <http://www.content.sport.ru>
14. <http://www.press-service.uz>
15. <http://www.uz-djti.uz>
16. [http:// www.olympic.uz](http://www.olympic.uz)
17. <http:// www.sports.uz>
18. <http:// www.minsport.uz>


II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

**II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM
METODLARI.**

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o’zlashtirish (sintezlash) ko’nikmalarini hosil qilishga yo’naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo’yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo’lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o’zlashtirilgan o’zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo’lim yoki boblar bo’yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul

variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:



4. “Baliq skeleti” GO

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

5. “Insert” GO

Yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (ta'lim oluvchi)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

6. “Klaster” GO

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

7. “Munosabat” metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqqa olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

8. “Nilufar guli” GO

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta “gulbarg” (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

9. “Reja” metodi

Metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash ta'lim

oluvchilardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Metod ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.


10. "T-jadval" GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

11. "SWOT-tahlil" strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jhati tahlil qilinadi:



Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Тушунчалар	(Ф)	(С)	(М)	(У)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

13. “Qarama-qarshi munosabat” strategiyasi

Strategiya o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo'lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:


Таянч тушунчалар			
№	Мухим тушунчалар	№	Мухим бўлмаган тушунчалар
1.		1. 2.	

14. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta'limda strategiyani qo'llash o'rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etilishi (2-soat nazariy).

REJA:

1. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xosxususiyatlari.
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi taraqqiyoti va ta'lim tizimi strategiyasi.

1.Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xosxususiyatlari.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Dastur asosida keng ko'lamli o'quv ishlari, belgilangan talab muhiti, talabalarning ijodiy vaish qobiliyatlari hamda mustaqil ishlarni tashkil etish belgilab quyilgan. Jismoniy tarbiya darslarinio'qitish sifatini oshirish asosida talabalarni qo'llab-quvvatlash va ko'nikmalarni rivojlantirish dasturda belgilab olingan.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish jarayonida professional sport ligalarini yaratish, mahalliy darajada boshqarish tartibga solish uchun mo'ljallangan edi, futbolchilar narxi oshdi, shunday klub egalari, eng yaxshi sportchilarni olishga uringanlar. Professional sport tashkilotlari, birinchi navbatda, harajatlarni ortishiga qaramay, o'z ishini saqlash va sport klublari (jamoalar) egalarining daromadining o'sishini qo'llab ligada asosiy me'yoriy hujjatlar uning konstitutsiya yoki ustav hisoblanadi. Misol uchun, sport klubi Prezidenti o'z vazifalaridan tashqari, yangi jamoani qabul qilish tartibi, o'yinchilarni tartibga solish bilan bog'liq masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Ularning mehnat sharoitlarini tavsiflovchi jihatlari bor:

- 1) Jamoalar tarkibini shakllantirish;
- 2) Futbolchilar bilan shartnomalar tuzish;
- 3) Liga jamoalari futbolchilarini yig'ish;
- 4) Liga doirasida futbolchilarni taqsimlashga o'tish tartibi.



Futbol ligasi tuzilishi futbol egalari o'rtasidagi iqtisodiy raqobat yo'qoladi, ligada a'zolik qoidalarini rivojlantirish, o'quv jarayoniga soddalashtirilgan kirish vakolatli, va oxir-oqibat to'g'ridan-to'g'ri televideniye va tomoshabinlar bilan aloqa uchun keng imkoniyatlar taqdim etiladi. Sport va faoliyat rivojida muhim o'zgarishlar orasida futbolchilar maoshi haqida chegaralarini belgilash to'g'risidagi fikrlar jamlanadi.

Jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish borasidamaxsus dasturlar ta'limni rivojlantirishda matematika, ekologiya, ijtimoiy va madaniy tarix fanlarini o'qitish bilan birga, jismoniytarbiya darslarini ham uzlusiz tashkil etish aynan belgilab olingan.

Shuningdek, 21-asrda yoshlarga innovasion ta'lim berish yo'llari ham belgila olingan bo'lib, yangi g'oya va nazariyalarni shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Qolaversa, talabalarni jismoniy tarbiya va sport musobaqalarni tashkil etish va o'z faoliyati natajalariga ega bo'lishgaundaydi.

AQSHda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'qituvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikkiyilik bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il-qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan

moslamalar)ta'lim televideniyesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.

XXI asr arafasida **AQSH** yangi qabul qilingan **“2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi”** dasturi e'lon qilindi.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib boorish bo'yicha **AQSH** jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan 50 foizini firma konsernsindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining manbalari tashkil qilindi.

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya darslarini o'qitish sifatini oshirish borasida maxsus dasturlar keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, jismoniy tarbiya va sport ta'limini rivojlantirish asosida an'anaviy dastur qabul qilingan bo'lib, “bir me'yor hammaga mos” shiori ostida rivojlantiruvchi mezon sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa mutanosib ravishda barcha talabalarning jismoniy rivojlanishiga, imkoniyat va o'z qobiliyatlarini ishga solishga undaydi. Bunga asosan har bir shaxs uchun maxsus yo'naltiruvchi dasturlar ishlab chiqiladi.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda “Ta'lim haqidagi” qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib 1975 yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan “Ta'lim haqidagi qonuni” 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar mamlakatning ichki tashqi siyosatida islohotlar yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar chet el pedagogikasidagi ilg'or texnologiyalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

kichik guruh (2-4 yosh),

o'rta guruh(4-5 yosh),

katta guruh (5-6 yosh).

Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga**Fransiyada** 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Tayyorlov bosqichi- 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

Navbatdagi bosqich- elementar kurs bo'lib bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlarni yanada takomillashtiriladi.

Boshlang'ich maktabning 3-bosqichi- chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida "Grajdanlik ta'limi""Nafosat ta'limi" ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa tasviriy san'at sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash ularni rag'batlantirish shaxsiy

qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

2.Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi taraqqiyoti va ta'lim tizimi strategiyasi.

Yaponiya– juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yaponxalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Yaponiyata'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar – “xan”larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada“o'zi sho'rni” ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagihar bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bohqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi.**Yaponiya** bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi, bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa,sport o'yinlari, rassomlik kabi

shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uygʻotiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlangʻich taʼlimga erta qabul qilishga oʻtish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bogʻchasiga jalb qilish koʻzda tutilmoqda.

Bolalar bogʻchasi **Yaponiyada** vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy masʼuliyat koʻnikmalarini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Bolalar bogʻchasining asosiy vazifasi – bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya boʻyicha mashgʻulotlar oʻtiladi. Individuallik, uqanchalik yaxshi boʻlmasin, oʻquvchilarni oʻziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi. 99% yapon boshlangʻich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. Oʻquv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. Sanʼat va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xoʻjaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma, akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlangʻich taʼlim majburiy va bepul boʻlib, mashgʻulotlar aprel oyida boshlanadi. Oʻquv yili 3 ta chorak – trimestrga boʻlinadi. 1-chorak–6-apreldan–20-iyulgacha davom etadi, keyin yozgi taʼtil boshlanadi. 1-sentyabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26-dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrda 7-yanvargacha qishli taʼtil boʻladi.

Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi taʼtil boʻladi. Shu paytda oʻquvchilar sinfdan sinfga koʻchadi. Chorak trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga toʻgʻri kelishi mumkin. Taʼtil paytida oʻquvchilar uy vazifalarini oladilar. Baʼzan taʼtil paytida ham, agar trimestrda yaxshi oʻqimagan boʻlsa, maxsus kurslarda oʻqiydilar. Yaponiyada oʻqish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda oʻqitish dasturi oʻzgaruvchan, lekin Taʼlim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlangʻich taʼlimni moliyalashtirish, oʻqituvchilar bilan taʼminlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlangʻich

ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;

-o'quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;

-ona tilidan to'g'ri foydalanish;

-iqtisodiy tarbiya berish;

-barkamol shaxsni tarbiyalash.

O'quv maqsadlariga aniq o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang'ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o'qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Shuningdek "maxsus faoliyat" fani ham o'qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va boshqalar kiradi. Kam ta'minlangan oilalarning bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi. Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.

Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tilimajburiy fan bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari,

qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabkivaqtni egallaydi.

Kichik o'rta maktabda o'tiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlovfanlar kiradi. Bufanlarning tarkibi maktablarga bog'liq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi.

Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori ta'lim olishini juda hohlaydilar. Ta'limga bunday katta e'tibor "dzyuku" maktablarining yaratilishiga asos bo'ldi. "Dzyuku" – nufuzli o'quv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq.

"Kichik dzyuku"lar 5-6 o'quvchidan iborat bo'lib, o'qituvchining uyida shug'ullanadi. "Katta dzyuku"lar 5 minggacha o'quvchilarni yig'adi. O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi.

Katta o'rta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy ta'lim olish maqsadiga ko'ra kursni tanlash nazarda tutilmoqda. Katta maktab dasturlari o'rta maktab va boshlang'ich maktab dasturlariga ko'ra xilma-xil, lekin o'quvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo'yicha imkoniyatlar yaratiladi.

Katta maktablarda o'qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiylar o'rta va boshlang'ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta'lim muassasalarida stipendiyalarkonkursi g'olibibo'lsa, tekin o'qish mumkinyoki chegirmalar olish mumkin. O'rta maktabdan katta maktabga o'tish imtihonlar natijalariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'rta maktabda o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi. Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiylar maktab- akademiyalar (gakuenlar) bor. Shuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi "milliy maktablar" mavjud. Bu akademiyaga kirish uchun katta konkursasosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdand akademiyada yaxshi ta'lim

dasturlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi oliy maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

Yaponiya hukumati OO'Yulari bitiruvchilarini o'qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, davlat maktabi o'qituvchisi bo'lish uchun yapon fuqarosi o'qituvchi diplomini olishi kerak va o'qituvchilikka tayinlash imtihonidan o'tishi kerak. Yaponiyada katta o'rta maktablarning kunduzgi (o'qish-3yil), kechki va sirtqi (o'qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvohnomasi xuddi kunduzgi katta maktabnikiday bo'lsa ham, 95% o'quvchilar maktabning kunduzgi bo'limida tahsil olishadi. Katta maktablarga qabul qilish kichik maktabni tugatganlik va kirish imtihonlari natijalari bo'yicha konkursdan o'tganligi haqidagi hujjat asosida amalga oshiriladi.

Katta o'rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslikva boshqa majburiy umumta'lim fanlariga qo'shimcha holda o'quvchilar tanlov bo'yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo'lishi mumkin. 12-sinfda o'quvchilar o'zi uchun ta'lim profillaridan birini tanlashi kerak.

Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, katta o'rta maktabda bilimlarni baholashda OO'Yu tizimidan foydalaniladi. Bu har bir o'quvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari bo'yicha 4 ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo'yicha 2 kredit, klassik til bo'yicha – 2 kredit.

Yaponiyada davlat universitetlarigato'liqo'rtamaktabnibitiribkirish mumkin. Qabul 2-bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"nitopshiradilar.

Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ball olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihontopshiradilar. Shuni aytish joizki, xususiy universitetlar kirish imtihonlarini mustaqil o'tkazadilar. Eng yaxshi xususiy universitetlar o'zining tuzilmasida boshlang'ich, kichik o'rta va katta o'rta maktab, hatto bolalar bog'chasiga ham ega. Agar abituriyent mazkur universitetda bog'chadankatta o'rta maktabgacha yaxshi o'qisa, universitetga imtihonsiz qabul qilinadi. 2005 yil 2,8 mln. Yaponiya talabalari 726 universitetlarda tahsil olishdi. Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsiya qilinadi. 2 tipdagi universitetlar mavjud: milliy universitetlar davlat universitetlari.

Yaponiyada kuchli 20 talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir. Universitet tanlashda birinchi mezon – uning nufuzliligida. Bunday nufuzli OO'Yu bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi.

Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurrokkirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa – talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talabamutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Ohirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi.

Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chetellik talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination). Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi.

Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zacht birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semester davomida har hafta Ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zacht birliklarini to'plashlozim.

Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zacht birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi.

3 yillik doktorlik dasturlari 50 zacht birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quvyurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi- talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor

Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. Yaponiya yoki chet el oliy o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi.

Germaniya davlati ta'lim tizimi- Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) xukumatining kompetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag'ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal xukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim soxasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quvdasturi, imtixonlarni o'zarotanolish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lim tizimi xaqida o'zining qonuni mavjud, lekin buning xammasi umumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqti, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mavjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantlilikiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'minlanadi.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra

davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differensiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda **Germaniya** ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1.Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlar bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yokibu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

Ta'limning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I)“yo'nalishli bosqich” deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim “dual tizim” deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma “yetuklik attestati” – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari YeI (YeS) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, YeI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniyauzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneger, Gumboldt, Kant, Gegel va boshqalarkabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quvyurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniga" ko'ra har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyiva kasbtanlash xuquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har birshaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaing har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya

xukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. Shu bois nemis ta'lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi. Germaniyada ta'lim o'z fuqarolari va chet el fuqarolari uchun tekin. Lekin nemis ta'lim tizimida davlat tasarrufidagi va xususiy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, xususiy ta'lim tizimlari pullikdir.



Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktabyoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten)taxsil oladilar.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab- quvvatlash muassasalari tizimiga

kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Bolalar bog'chasida nutq o'stirish, bola shaxsini rivojlantirish, ijtimoiy tarbiya va o'yin muhim sanaladi. Har yili 30-iyun kuni 6 yoshga to'lgan bolalar maktabga borishlari shart. Birinchi darsgacha bo'lgan muddatda ular tayyorlov mashg'ulotlariga borishlari shart bo'lib bu darslar boshlang'ich maktablarda o'tkaziladi va bir necha nomga ega: -"Vorbereitungssahr", "Vorschule", "Schulnachmittage". Bu darslarning maqsadi 5 yoshli bolalarni 1-sinfga tayyorlash va ularning kelgusida maktabni tanlashga ta'sir qiluvchi qobiliyatlarini maksimal aniqlashdan iborat. Maktab yoshiga yetgan, lekin u yerga bora olmaydigan bolalar uchun maxsus guruhlar ham mavjud. Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlar maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Germaniyada maktab ta'lim tizimi ikki bosqichli tizim bo'lib, boshlang'ich maktab (Primastufe) va o'rta ta'lim muassasalari (Sekundastufe)dan iborat. Kunduzgi maktabga 9 yil, ba'zi Federal Yerlarda 10 yil o'qish majburiy. Bu muddat tugagach, kunduzgi maktabning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishni istamagan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar kasbiy ta'lim maktablarida o'qishlari shart.

GFRda Federal Yerlar ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. O'quvchilarga qisman bepul o'quv qo'llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o'qitish majburiy emas. O'quvchi 14 yoshida bu fanni o'qish yoki o'qimaslikni o'zi tanlaydi. Maktablarda bolalar va qizlar aralash o'qishadi. Ta'lim spektri Federal Yerlarning moliyaviy yordamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to'ldirib boriladi.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi:

1. Boshlang'ich maktab (**Grundschule**)
2. Yo'nalish maktablari (**Orientierungstufe**)

3. Asosiy maktab (**Hauptschule**)
4. Real maktab (**Realschule**)
5. Gimnaziya
6. Umumiy maktab (**Gesamtschule**)
7. Maxsus maktab (**Sonderschule**)
8. Sport maktablari

Janubiy Koreya ta'lim tizimi -Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'zmadaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlari va oriyentirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar.Bu davlatning ta'lim tizimi **YUNISEF** ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi”deb tan olingan.

Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investisiyani to'g'ri tikkanligida” deb ta'kidlashadi. Konfusi davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati xozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

Janubiy Koreyata'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi

isbotlandi. Ta'limning deyarli 1- bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur.

Lekin shuni hisobga olish joizki, ta'limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o'z-o'zidan eski tartib elementlarni yengib o'tish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishninazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni qabul qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi.

Maktabgacha muassasalarga beradilar. Bumuassasalarda ta'lim koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko'pchilik bolalar "maktabgacha" tayyorgarlik olmasliklari, ya'ni xususiy maktabgacha muassasalarga bormasliklari, balki bolalar bog'chasiga shunchaki borishlari mumkin.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi:

- **Koreys tili;**
- **Matematika;**
- **Aniq fanlar;**
- **Jamiyat haqidagi fanlar;**
- **Chet tili;**
- **Tasviriy san'at;**
- **Musiqa.**

Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus o'qituvchilar tayinlanadi. Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga, undan yuqori

ta'limga imtihonlartopshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. Shu bois ota-onalar o'z farzandlarini xususiy o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'nata dilar. Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni "xagvonlar" bolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. Shu maqsadda ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan.

Boshlang'ich maktab koreyschasiga "chxodin xakkyo" deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi. 1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va "gukmin xakkyo" deb nomladi. Bu atama "fuqarolik maktabi" degan ma'noni anglatadi.

Janubiy Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlaridavlatmaktablario'quvdasturlarigabirmunchamoskeladi,lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o'quvchilarga ko'p o'qituvchilarning jalb etilishi, qo'shimcha fanlarningkiritilishi, umuman ta'limning yuqori standartlargaegaligi va h.k. Shu boisko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o'qish narxining balandligi ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi. Boshlang'ich maktabn ibitirgan o'quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o'tadilar.

Nazorat savollari

1. Xorijiy mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim muassasalari faoliyati haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
2. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi sifatining asosiy yo'nalishlari nimadan iborat?
3. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimining taraqqiyoti qaysi omillarga bog'liq?
4. Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi yutuqlar nimadan iborat?

5. Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.

IV. AMALIY MASHG'ULOT.

2-mavzu: Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi. (2-soat nazariy).

REJA:

1. Sport ta'limi sifatini oshirishning global ahamiyati.
2. Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi.

1. Sport ta'limi sifatini oshirishning globala hamiyati.

Sport inson hayotining barcha bosqichlarida sog'liq va faol hayot tarzini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab kelingan. Albatta, jismoniy tarbiya turli sport maktablari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi klublar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga quyishda hayotning barcha jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, sport aynan sog'liqni saqlash hamda sport ta'limi natijalarini qo'lga kiritishda va insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Sifat aynan sport ta'lim sohasi rivojining asosiy garovi hisoblanadi. Sport klublari o'rtasida keskin raqobat muhitining shakllanganligi, aynan sport klublari oldida turgan asosiy vazifa sifatida raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash o'z dolzarbligini belgilab berdi. Sportchilarni tayyorlashda mashg'ulot olib borish sifatini yaxshilash, sport klublari oldidagi muhim masalalaridan hisoblanadi.

Globalashuv sharoitida stabil va strategik muammolaridan biri bo'lib, sport klublarida sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilashdagi muammolarni tubdan hal etishiga bog'liqdir. Sport klublaridasportchilarni tayyorlashda sifatni yaxshilash jarayoni sportchini yoshligidan shug'ullantirib va chiniqtirishdan tortib, to jahon arenalarida chiqib yuqori o'rinlarni qo'lga kiritishda sifatli amaliy xizmatlarini ko'rsatish ham zarur masalalardan biridir.

Bugun sportni davlat tomonidan huquqiy tartibga solish bo'yicha muhim ta'sir ko'rsatadi va professional sport bilan yaqin munosabatlar mavjud.

Futbolchilar jamoasini tanlash: balki sportchimiz buyruqni tanlab olar va unga shartnoma imzolanishi taqdirda edi butunlay qaram bo'lib kimdan buyruq va uning egasining nomini ko'rsatadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, sportchi uni

qiziqtiradiklubida ish bilan ozod qilish huquqiga ega. Klub egalari fuqarolik huquqlari sportchini cheklash raqobatbardosh jamoa muvozanat imkonini beradi maxsus tizimi uchun sportchilarni ishga jalb etiladi.

2. Sport ta'limi sifatini oshirishda AQSH, Yevropa va Osiyo davlatlari tajribasi

Ayrim mamlakatlarda, masalan **Germaniya** va **Buyuk Britaniya**da bakalavr darajasiga kirish uchun siz 12 yillik ma'lumotga ega bo'lishingiz kerak. **Ukrainada** atigi 11 yillik maktab bo'lganligi sababli, bu Ukraina universitetida qo'shimcha 1 yil bo'lishi mumkin. Agar siz hali ham 11-sinfdan keyin o'qishga borishni xohlasangiz, bakalavriyat kurslariga kirishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan bir yillik kurslar alternativaga aylanadi. Va masalan, **Gollandiyada** yoki **Avstriyada** maktabdan keyin kirish mumkin, bu holda asosiy narsa universitetda o'qishni boshlashida sertifikat mavjudligi. Agar siz Evropada magistr darajasiga ega bo'lishga qaror qilsangiz, unda bakalavr darajasiga ega bo'lish va kirish talablarini bajarish kifoya.

Shimoliy Amerika- ta'lim **Shimoliy Amerikada** olingan ta'lim har doim juda mashhur bo'lgan. **AQSH** va **Kanada** turli sohalarda juda ko'p o'quv dasturlarini taqdim etadi.

Shimoliy Amerikadagi ta'limning katta afzalligi shundaki, bitiruvchilar tayanchga ega bo'lish va yashash va ishlash uchun haqiqiy imkoniyatga ega. Sifatli o'qitish; Xalqaro talabalarining ko'pligi va boy madaniyatli muhit; O'quv dasturini mustaqil ravishda tuzish qobiliyati. Shunday qilib, talabalar tanlashlari kerak bo'lgan bir nechta majburiy fanlar va mavzular bo'ladi. Nufuzli universitetlarning ko'pligi va sifatli o'quv dasturlari.

Osiyoda ta'lim-**Osiyoda** xalqaro ta'limga talab tez o'sib bormoqda. Jarayon ta'limning mutlaqo boshqacha uslubi bilan izohlanadi, u "turmush darajasi", ta'lim bozorida katta sarmoyalar va **Osiyo** mintaqasi davlatlarining jadal iqtisodiy o'sishi bilan "ta'lim markazi" deb nomlanadi.



Osiyoda o‘qishning asosiy afzalliklari orasida uning qiymati vasifatining kombinatsiyasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, **Osiyo** mamlakatlaridagi oliy o‘quv yurtlari va biznes maktablari **Shimoliy Amerika** darajasidagi o‘qish dasturlarini taklif etadilar, ammo arzon narxlarda. Chet ellik talabalar mutlaqo yangi madaniyat bilan tanishadilar, kasbiy aloqalarni o‘rnatadilar, o‘quv jarayoniga kiritilgan amaliyotlarning bir qismi sifatida. **Osiyoda** ingliz tilida oliy ma’lumot olish imkoniyati ushbu mintaqaning jozibadorligini oshiradi.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:

- Chet elda ta’li va sportning rivojlanishlarini o‘rganish.
- Hozirgi zamon sport turlarining horijdagi muammolarini tahlil qilish.
- Zamonaviy sport o‘yinlarining Jahonda rivojlanishi va uni tahlil qilish.
- O‘zbekistonning hozirgi zamondagi vazifalarini o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalardan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **Klaster** interfaol usulidan foydalaniladi.


-
- **Amaliy mashg`ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):**

- 1. Sport
- 2. Jismoniy tarbiya
- 3. Xorij
- 4. Zamonaviy
- 5. Xalqaro
- 6. Sifatli
- 7. Samarali
- 8. Ta`lim
- 9. Tizim
- 10. Yo`nalish
-

Amaliy mashg`ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “T - chizma”
interfaol usulidan foydalaniladi.


1-TOPSHIRIQ

Ta`lim tizimida onlayn o`qitish shaklining yutug`i va kamchilik tomonlarini yoriting.



2. TOPSHIRIQ


- o Venn diagramasidan foydalanib Osiyo va Yevropa ta`lim tizimining o`xshash va farqli jihatlariga izoh berib keting.**
- o OSIYODA TA`LIM YEVRUPADA TA`LIM**



- o Bu ikkita tizim tushunchasining yon tomonida bir-biridan farqli o`rtasida esa o`xshash jihatini yozing.


3. TOPSHIRIQ

- o **Venn diagramasidan foydalanib Yevropa futboli va Janubiy amerika futboli farqli va o`xshash jihatlarini kichik guruhlarida yoritib bering.**
- o **Yevropa** **Janubiy amerika**



- 4 Topshiriq.

- **Xorijdagi sportchilarning (yevropa, shimoliy amerika) texnik, taktik va psixologik tayorgarligini klaster metodi orqali yoritib bering**



- 5-Topshiriq.

Olimpiya o`yinlari va jahon chempioni sportchilarning shaxsiy va professional fazilatlari haqida yozib bering.

Sportchining shaxsiy fazilatlari	Sportchining professional jihatlari

- 6-Topshiriq.

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- "Klaster" metodini o'tkazish bosqichlarida asosan mavzuga oid tayanch tushunchalarga e'tibor qaratiladi
- Tayanch tushunchalar orqali mavzuga oid 5 ta aniq ma'lumot qayd etiladi.
- Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko'proq yangi g'oyalarni yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatiladi.

Nazorat savollari

1. Sifat sport ta'lim sohasi rivojining asosiy garovi deb nimaga aytiladi?
2. Sportni tashkil etishda Amerikaning qaysi tajribalarini qo'llash mumkin?
3. Sportni tashkil etishda Yevropa davlatlarining qaysi tajribalarini qo'llash mumkin?
4. Xorijiy mamlakatlarda sport ta'limi sifatini oshirishda qaysi omillarga ko'proq ahamiyat berishadi?

3-mavzu: Ommaviy sport turlarini tashkil etish va boshqarishda xorijiy tajribalar. (2 soat amaliy).

REJA:

1. Professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasi.
2. Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.

1. Professional sportni tashkil etishda rivojlangan davlatlar tajribasi.

AQSH uchun xarakterli bo'lgan birinchisining asosi maksimal daromad olish istagi bo'lsa, professional sport o'ziga xos biznes sohasi hisoblanadi. Sport faoliyati va uning natijalari foyda olish vositasidir. Milliy chempionatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, chempionatda o'ynaydigan jamoalarning tarkibi yildan-yilga barqaror. Oxirgi o'rinni egallagan jamoa (yoki jamoalar) quyi ligaga o'tmaydilar. Liga tarkibidagi o'zgarish, klubni sotish yoki sotib olish yoki ligaga kirishga katta badal to'lashi bilan kerak bo'lgan yangi klub tufayli, barcha jamoalar o'rtasida taqsimlanadi. Biz o'zboshimchalik bilan bu yondashuvni **Amerika tajribasi** deb atashimiz mumkin.

Yevropa modeli ustunlikni yaratishga intilayotgan sport jamoalari o'rtasidagi raqobatga, asosan kuchli sportchilarni qo'lga kiritish uchun moliyaviy imkoniyatlarga asoslanadi. Ushbu holat ertami-kechmi, qoida tariqasida, yildan-yilga o'zlari orasida chempionatda sovrinlarni yutib oladigan bir nechta (ikkitadan uchtagacha) super klublarning paydo bo'lishiga olib keladi. So'nggi 15 yil ichida biz qayd etgan futbol bo'yicha Yevropa milliy chempionatlari buning tasdig'idir. **Italiyada** -“*Milan*” va “*Yuventus*”, **Germaniyada** -“*Bavariya*”, **Angliyada** -“*Manchester Yunayted*” va “*Arsenal*”, **Ispaniyada** -“*Barselona*” va “*Real Madrid*”, **Rossiyada** -“*Spartak*”, “*Lokomotiv*”, **CSKA**; **Ukrainada** -“*Dinamo Kiyev*” va “*Shaxtyor*”.

Professional sportni yevropa boshqaruvi tahlili shuni ko'rsatadiki, jamoa rahbarlari va menejerlarining musobaqani tashkil etish tizimida yuzaga kelgan vaziyatni yengib, iqtisodiy natijalarga erishish istagi ko'plab klublarni o'z imkoniyatlaridan tashqarida boshqarishga majbur qiladi va bu ko'pincha halokatli oqibatlariga olib keladi. Bunday misollarni mahalliy professional sportning qisqa tarixidan ham keltirish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, **Amerika** boshqaruv tizimi bilan solishtirganda, Evropa professional ligalarni yollashda boshqacha printsiptni qo’llamoqda. Ushbu boshqaruv xususiyati jamoani qurishning boshqa tamoyillariga, homiylarning (Yevropa klublari, qoida tariqasida, homiylik orqali o’z daromadlarining 50 foizigacha bo’lgan qismini) va mahalliy ma’murlar tomonidan ularni moliyalashtirishda ishtirok etishiga olib keladi.

Yevropada klublar televizion huquqlarni sotishdan kamroq daromad olishadi, sportchilarning maoshlari kamroq va ular ijtimoiy jihatdan kamroq himoyalangan. Ta’kidlash joizki, na **AQSHda** va na **Yevropada** professional sport turlari mamlakat terma jamoalarida sportchilarni xalqaro musobaqalarda qatnashishga tayyorlash vazifasi emas.

Professional sport sohasidagi **Amerika** boshqaruv tizimi uni boshqa o’yin-kulgilar turlari bilan raqobatlashadigan hordiq chiqarish sohasi deb biladi. Taniqli sportchilar shou-biznes vakillari. Menejment tizimi jamoalarni iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklardan himoya qilishga yordam beradi, chunki daromadlar ligadagi barcha jamoalar o’rtasida taqsimlanadi.

Shu bilan birga, klub egalari moliyaviy resurslar va o’yinchilarni manevr qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklashadi, chunki sportchilarning oylik maoshlarida cheklovlar mavjud.

2.Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.

So’nggi yillarda ko‘p maqsadli klublar chet elda tobora ommalashib bormoqda. Masalan, AQSHda deyarli har to‘rtinchi klub ko‘p maqsadli. Ushbu klublar mijozlarning keng ko‘lamli sport va dam olish manfaatlarini qondirish va xizmatlarni ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. Bunday klublarda odatda turli xil sport inshootlari mavjud: sport inshootlari, sport zallari, bolalar uchun sport zallari, basseyn, yugurish yo‘llari va boshqalar. Iqtisodiy nuqtai nazardan, xorijiy ekspertlar davlat va xususiy sport tashkilotlarini ajratib ko‘rsatishadi. Jamoa sport klublari respublika, viloyat yoki shahar

byudjetidan moliyalashtiriladi. Xususiy klublar xususiy kapital tomonidan moliyalashtiriladi va ularning faoliyati to'liq klub egasiga bog'liq.

Shuningdek, tijorat va notijorat sport klublari mavjud. Bunday holda klublarni tasniflash mezonini foyda olish imkoniyatidir. Davlat sport klublari odatda notijorat (notijorat) tashkilotlar, xususiy klublar odatda tijorat tashkilotlari hisoblanadi. Davlat va xususiy sport va sport tashkilotlari ko'p jihatdan farq qiladi: maqsadga yo'naltirish, iqtisodiy mexanizm va ish samaradorligi. Har bir sport tashkiloti o'zining funksional maqsadiga muvofiq ravishda o'quv dasturlarini tanlaydi. Xorijiy sport tashkilotlarining dasturlarini tahlil qilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, ular aholining turli sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi harakatlariga qaratilgan. Buning uchun sport klublarining talabiga binoan chet ellarda muntazam ravishda sotsiologik tadqiqotlar olib boriladi.

So'nggi paytlarda sport va sog'lomlashtirish klublarining tabiati va yo'nalishi biroz o'zgargan. Agar ilgari sog'liqni tiklash, tiklovchi yoki raqobatbardosh tomonlar ustunlik qilsalar, endi dasturlar ancha murakkab va jiddiy bo'lib qoldi, ayollar va bolalarga katta e'tibor berilmoqda: ayollar jismoniy mashqlar qilishadi, bolalar o'ynashadi, raqsga tushishadi va hokazo. Shaxsiy murabbiylar ishlaydigan sport tashkilotlari ayniqsa mashhurdir: ortiqcha vaznga ega bo'lgan ayollar, jismoniy mashqlar tajribasiga ega bo'lmagan keksa odamlar, shuningdek, badanni shakllantirish va shakllantirish bilan jiddiy shug'ullanmoqchi bo'lgan odamlar bilan. A'zolar shaxsiy parvarish uchun soatiga 25 dollar to'lashga tayyor.

Xorijiy sport tashkilotlarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlardagi sport klublari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu munosabat bilan biz quyidagilarni ta'kidladik: sport klubining **Amerika modeli**; sport klubining nemis modeli va nihoyat sport klubining Skandinaviyalik modeli.

Nemis mutaxassisi G.G. Kemmerera, Germaniyada sport klublarining maqbul tashkil etilishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: - 1 ming aholiga bittadan klub tavsiya etiladi (o'rtacha); - Har bir sport tashkiloti har ikki yoshdagi yosh guruhlar uchun dasturlarni taqdim etishi kerak; - har bir klub uchun raqobatbardosh va raqobatsiz sport turlari bo'yicha dasturlar majburiydir;

- Klublarga a'zolik - pullik (badallar malakali mutaxassisning o'rtacha bir soatlik ish haqi asosida to'lanadi); - har bir jamiyatda 10 yoki undan ortiq asosiy milliy sport turlari etishtiriladi; - iqlim yoki geografik sharoitga mos bo'lmagan boshqa barcha turlar qo'shni klubda bir soatlik masofada joylashtirilishi kerak. Klublar har yili nafaqat 10 millionga yaqin sport tadbirlarini o'tkazishadi, balki 8,2 mingta turli xil mashg'ulotlarni o'tkazishadi. Sport tashkilotlari faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri bu xodimlarni ixtiyoriy asosda sport etakchisi sifatida ishlashga tayyorlash. Mamlakatda 1,4 million erkak va ayol bor, ular ixtiyoriy ravishda raislar, rayosat a'zolari, sudyalari, xazinachilar va boshqalar sifatida ishlaydi. Ularning ishi har yili 3,6 milliard G'arbiy Germaniya markalarida yoki 2 milliard dollarga baholanmoqda. Har yili ular sport maydonlarida yoki ish stolidan 185 million soat sarflashadi. Qaysi hukumat, kompaniya yoki boshqa tizim ularni qo'llab-quvvatlashga qodir? Albatta, sportda doimiy ishlaydigan professional mutaxassislar mavjud, ammo ularning soni (10 ming) 1,7 million ishqibozlarga qaraganda juda kam. Sport klublari tizimining iqtisodiy ahamiyati shunchaki diqqatga sazovordir: davlat to'lanmagan mehnat tufayli 3,6 milliard markani tejaydi. Qo'shimcha 3,5 milliard belgi klublarning yillik moliyaviy byudjetini tashkil qiladi. Klublar ta'lim, sport formasi, transport, oziq-ovqat va adabiyotga sarflangan pulga 20 milliard markani sarfladilar. Millionlab ishtirokchilar haqiqiy sport bozorini yaratdilar, unda katta sport turlari bilan shug'ullanish muddati ancha qisqaroq yuqori darajadagi sportchilarga nisbatan eng yaxshi iste'molchilar mavjud.

Amaliy mashg'ulotning vazifalari:

- yangi pedagogik texnologiyalar ("Klaster", "Venn diagrammalar") yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.

- amaliy mashg'ulot uchun material - aniq topshiriq ("Keys topshiriqlari"), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalardan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **Klaster** interfaol usulidan foydalaniladi.


o Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

o 1. Musobaqa

- 2. Mashg`ulot
- 3. Klub
- 4. Tayyorgarlik
- 5. Sport
- 6. Texnika
- 7. Tashkilot
- 8. Futbol
- 9. Maydon
- 10. Iqtisod
-

1-TOPSHIRIQ

Mamlakatimiz futbol klublari qachon Osiyo champion ligase g`olibligini qo`lga kiritadi.



2-TOPSHIRIQ

Kichik keys

5-sinfda jismoniy tarbiya darsi edi. O`qituvchi qo`lini ko`targan boladan yelka bo`g`imini rivojlantirish uchun mashq bajarib berishini so`ramoqda. Bola duduqlanadi va u qancha hayajonlansa, bu holat shuncha kuchayadi. To`xtalib qolish ro`y beradi.

O'qituvchi bolaning birinchi mashqni bajarishga urinishini kuzatgan holda, bir oz kutadi. Shundan keyin, o'quvchiga baqirib, uyga vazifani bajarmagan bo'lgan kerak, bunday dangasaliging jonga tegdi deb, ota-onasini chaqirishini aytadi.

Gurix orasidan kimdir kula boshlaydi, kimdir yerga qaraydi. Bola qo'rquv ostida qiyin so'zni "chaynaydi" va davomini o'qishga harakat qiladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:


Keysdagi bolaning nima sababdan duduqlanishini keltirib chiqargan asosiy sabablarini keltiring.

O'qituvchi tamonidan berilgan jismoniy mashqni bajarilish vazifalar ketma-ketligini ishlab chiqing.

O'quvchilar faolligini, berilgan vazifani bajarishda samarali ishlarni tashkil etish uchun bajariladigan vazifalarni ketma -ketligini belgilang.

3-Topshiriq.

Venn diagramasidan foydalanib professional va ommaviy sport turi farqli va o'xshash jihatlarini yozing.



Venn diagrammasi murakkablashishi mumkin, ammo eng sodda shaklda bu o'rtada bir-biriga o'xshash ikki doiradir.


4-Topshiriq.

Jahon boks yulduzlar M.Tayson va L.Lyuisning sport yutuqlarini jadvalga kiriting..

M.Tayson	L.Lyuis


5-Topshiriq.

Sport anjomlariga izoh bering va qisqacha sport turning tarixi haqida gapiring.



6-TOPSHIRIQ

Xorijda boks, futbol, sambo va boshqa sport turlarining rivojlanishi va afzallik tomonlarini yoriting.



Xulosa qilib aytganda, bugun ta'lim tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirishda fuqarolik jamiyati fanini yanada takomillashtirish yo'lidagi muammolardan biri – bu ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ayrim pedagog kadrlarimizning darsni tashkil etishdagi an'anaviy usullar bilan cheklanib qolayotganligidadir. Bu esa, ushbu fanlardan o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib qo'yilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishida yetarli natijalarga olib kelmaydi. Muammoni yechimi sifatida shuni taklif etish mumkinki barcha ta'lim muassasalarida fanlardan o'quvchilarga saboq berayotgan pedagog-kadrlarimizni malakasini oshirish va qayta tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan, noan'anaviy dars usullaridan o'rinli foydalanishlariga ko'proq e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARIY

ABSOLYuT KUCH - bu o'z tana og'irligiga nisbatan ko'rsata oladigan kuchi. Masalan, shtanga ko'tarish, dinometrda kuchni ko'rsatish.

AMALIY NAZORAT Amaliy holatiga baho beriladi ya'ni sportchi organizimiga musobaqa va mashg'ulot darslaridagi yuklamalar ta'siri. Shuningdek: nazoratni chuqurlashtirilgan, tanlangan, maxalliy kabi turlari bor.

ASOSIY VAQT – futbolda bitta bo'lim uchun 45 – minut, to'liq o'yin uchun 90 – minut qilib belgilangan vaqt. Bo'lim va o'yin – ko'rsatilgan vaqtdan kam davom etmasligi kerak (favquloddagi vaziyat va holatlar bundan mustasno).

AUT (ing.outs) – bu tushuncha inglizcha “tashqarida, chetda” so'zlaridan kelib chiqqan. To'pning maydon yon chizig'idan chiqib ketishi. Agar futbolda to'p yon chiziqdan chiqib ketsa, o'yin to'xtatiladi va xuddi shu joydan ikki qo'l bilan boshning tepasidan otish bilan to'p o'yinga kiritiladi.

BAHSLI TO'P – to'p o'yinda bo'lgan vaqtda o'yin qoidasida ko'zda tutilmagan holat bo'yicha vaqtincha to'xtatilgandan so'ng o'yinni yangilash usulidir. Hakam o'yinni to'xtatganda to'p qaerda bo'lsa o'sha joydan to'pni tashlab beradi. To'p yerga tegishi bilan o'yin davom ettiriladi. Agar o'yinchi to'p yerga tegmasidan oldin tegsa, to'p yerga tekkandan so'ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o'yinchi to'pga tegmagan bo'lsa qaytadan bajariladi.

BO'SM - Bolalar o'smirlar sport maktabi

BOSQICHLI NAZORAT- Sportchining uzoq vaqt shug'ullangan mashg'ulot natijalarini bosqichlardagi holatini baholaydi. Sportchilarning bunday holati yillarda, makrostiklda, bosqichlardagi tayyorgarligining natijasidir.

BOSQON– yengil atletikada uloqtirishning maxsus snaryadi hisoblanib, sharsimon yadro va unga mahkamlangan po'lat sim (*tros*) va snaryadni ulash uchun dastakka ega bo'lgan anjom hisoblanadi. Bosqonning og'irligi 3, 4, 5, 6, 7,26 kg ga teng hisoblanadi (sportchilarning jinsi va yoshiga bog'liq holatda).

BOSQICH – musobaqa yoki chempionat davri.

BOSHLANG'ICH ZARBA – futbol sportida boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir: o'yin boshida; urilgan goldan so'ng; ikkinchi taym boshida.

BHH – Bosh hakamlar hay'ati.

BURChAK SEKTORI – futbol maydonining har bir burchagi ichidan radiusi 1 m. bo'lgan yoy chiziladi. Mazkur yoy hosil qilgan maydonchaga burchak sektori deyiladi.

BURChAK TO'PI – futbol o'yinida to'p himoyalananayotgan jamoa o'yinchilariga tegib maydondan to'liq havoda yoki yerga tegib maydonni tark etsa, burchak to'pi hakamning ko'rsatmasiga asosan amalga oshiriladi. To'p ko'rsatilgan 1 m radiusli burchakdagi bayroqcha oldidan (maxsus sektor ichidan) tepiladi. Burchak to'pi amalga oshirilayotganda raqib o'yinchisi tepilayotgan joydan kamida 9 m masofada turishi lozim.

BUTSI – futbol o'yini uchun mo'ljallangan, charmdan tayyorlangan maxsus oyoq kiyimidir. Oddiy oyoq kiyimidan butsining asosiy farqi, butsida cho'g'ir va maxsus qo'ng'ining bo'lganligidadir.

GOL – ingliz tilidan tarjimai maqsad, mazmuniga ko'ra “mo'ljal” ma'nosini bildiradi, maydonda to'p urish uchun o'rnatilgan darvozalarning shartli belgilanishi. O'yin 19-asrda paydo bo'lgan, u paytda hozirgidek darvozalar maydonda bo'lmagan. O'yin vaqtida to'p, raqib maydonining yarmiga, ikkita ustun o'rtasidagi chiziqli orqasiga keltirilishi – maqsadli mo'ljalga tegishi, kerak bo'lgan. Keyinchalik ustunlar yuqoridan gorizontal ustun bilan birlashtirilib, zamonaviy darvozani hosil qildi, ammo nomlanish eskicha – gol, ya'ni mo'ljal bo'lib qoldi. Urilgan to'plarning nomi shundan kelib chiqqan.

DARVOZA – futbol maydoni burchak flanglaridan bir xil uzoqlikda turgan, 7,32 m masofada joylashgan, 2,44 m balandlikda gorizontal metall bilan ulangan, ikkita vertikal ustun. Darvozaning o'lchamlari bu sport turi asoschilari bo'lgan inglizlar tomonidan kiritilgan. Ingliz o'lchov birliklari bo'yicha darvoza kenligi 24 - fut, balandligi – 8 fut.

DARVOZA IChI – futbol darvoza maydoni chizig'ining ichkari qismi (to'sin va ustki qismi kirmaydi).

DARVOZABON – darvozabonning asosiy vazifasi bevosita o‘z darvozasini himoya qilishdir. Bunda «darvozadagi harakatlar» bilan «darvozadan chiqqandagi harakatlar»ni ajratib ko‘rsatish mumkin.

DARVOZABON KIYIMI – darvozabonlar kiyimining rangi boshqa o‘z jamoasi, raqib jamoa o‘yinchilari hakam va hakamning yordamchilari kiyimi rangidan farq qilishi kerak.

DARVOZABON MAYDONChASI – futbolda jarima maydoni ichkarisi, unda darvozabon bilan har qanday kurashish taqiqlanadi.

DASTUR – musobaqalar dasturi – yengil atletikaning mazkur musobaqa o‘tkazilayotgan turlari ro‘yxati.

DISKVALIFIKATSIYA – bitta sportchini yoki butun bir jamoani reglament (o‘rnatilgan tartibni), qoidalarni buzganligi, hurmatga loyiq bo‘lmagan harakatlar qilganligi uchun musobaqalarga qatnashish huquqidan mahrum etish.

JADVAL – musobaqalar jadvali – sport turlarining ulardan har biri bo‘yicha musobaqa o‘tkaziladigan kun va soat ko‘rsatilgan ro‘yxati.

JARIMA ZARBASI – ongli ravishda qoida buzilganda, masalan, raqibga nisbatan qo‘pol o‘ynalganda, kiritiladigan jazo tadbiri. Futbolda qoidani buzgan jamoaning o‘yinchilari to‘pga 9 m dan kichik masofada, to‘p o‘yinga kiritilgunga qadar, yaqinlashishlari mumkin emas. Jarima zarba erkin zarbadan mana shunisi bilan farq qiladi.

JARIMA MAYDONChASI – futbolda darvoza oldidagi maydonning cheklangan sohasi. Turg‘un o‘lchamlarga ega: darvozaning har bir ustunidan uning bir tomoniga 16,5 m va maydon markaziga tomon 16,5 m. belgilangan umumiy maydoni 665 m². Jarima maydonchasi ichida darvozadan 11 m masofada penaltini bajarish uchun nuqta belgilanadi. Bu nuqtadan jarima chegarasidan tashqarida 9 m masofaga yoy chiziladi, futbolchilarga penaltini urish vaqtida bu chegaraga kirish mumkin emas, darvozabon va penaltini uruvchi bundan mustasno.

JQTSI - Jami qurib topshirilgan sport inshootlari

JT va SBSH - Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar

JISMONIY TARBIYANING VOSITASI - Ko'p yillik jismoniy tarbiya jarayonida *jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan* jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi.

JISMONIY MASHQ - deb, jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari gimnastika, o'yinlar, sport, turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirildi, usuliyati to'plandi va to'ldirildi.

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK NAZORAT - Sportchi shaxsini, uning ruhiy holatini, tayyorgarligini, musobaqa faoliyatidagi umumiy mikroklimatni va mashg'ulot holati xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

ICHKI KUCh - a) harakat tayanch apparatining *passiv kuchi* — muskulning elastikligi kuchi, muskullarni taranglashish kuchi, cho'zila olishligi va boshqalar; b) harakat apparatining *aktiv kuchi* — muskulni tortisha olish kuchi; v) *reaktiv kuchlar* — tana muskullari zvenolarining o'zaro munosabatida vujudga keladigan yuqori tezlanish hosil qiladigan tezlanish harakatlari bilan namoyon bo'ladigan kuch.

KAF – Afrika futbol konfederatsiyasi.

KVALIFIKASTION MUSOBAQA – final musobaqasida ishtirok etish uchun eng yaxshi sportchilarni saralab olishda uloqtirish va sakrash yengil atletika sport turlari bo'yicha o'tkaziluvchi musobaqa turi hisoblanadi.

KROSS – kesishuvchi joy bo'ylab o'rta va uzoq masofaga yugurish hisoblanadi. Bu sport turi Olimpiya o'yinlari turi sifatida qayd qilinmagan.

KUNDALIK NAZORAT - Kundalik holatni baholashga qaratiladi ya'ni mashg'ulotlar yoki musobaqa makrostiklida bir qator darslar yuklamasining oqibatida paydo bo'ladi.

KUCh - Kundalik turmushda kuch so'ziga har xil ahamiyat beriladi. Kuch ilmiy tushuncha sifatida, imkoniyati boricha aniq bo'lishi kerak. Quyidagi kuchlarni farq qilinishi quyidagicha:

1. Kuch harakatning mexanik xarakteristikasi sifatida (tanaga "T" massa bilan kuch ta'sir etadi).

2. Kuch insonga xos bo'lgan sifat jarayoni. Misol: Sportchining kuchi yoshi o'zgarishi bilan kuchni rivojlantirish; sport bilan shugullanuvchilar kuchi sport bilan shug'ullanmaganlarga qaraganda katta bo'ladi. Masalan: ilmiy tadqiqot ko'rsatkichlari bo'yicha maktab o'quvchilarining kuchlarini rivojlanishi sport bilan shug'ullanuvchilarga nisbatan past bo'ladi.

KUBOK O'YINI – mag'lubiyatdan so'ng musobaqani tark etish tizimidagi o'yinlar. Odatda, bu o'yinlar natija uchun yuqori javobgarlikni talab qiluvchi hisoblanadi, bu esa kubok o'yinlarini ancha sermazmun va tomoshabinbopligini oshiradi. Kerak bo'lsa, har bir o'yinchining maydonning har bir qarichida to'p uchun, g'alaba uchun qat'iy kurash olib borishi bilan qiziqarlidir.

QIZIL KARTOCHKA – futbolda, shu bilan birga, qo'l to'pi, xokkey (to'p bilan), regbi, yengil atletika kabi sport turlarida hakam tomonidan maydondan chetlashtirish, chiqarib yuborish ko'rsatmasi belgisi tarzida ko'rsatiladi. Futbol qoidasiga ko'ra, hakam tomonidan qizil kartochka ko'rsatilgan sportchi o'yinni va maydonni albatta, shu zahoti tark etishi lozim (o'yin oxirigacha o'yinga kirmaydi). Uning jamoasi esa uni boshqa o'yinchiga almashtirish huquqiga ega emas. Qizil kartochka o'yinda o'yinchining qo'pol ravishda qoida buzganligi, rejalashtirilgan atayin zarba berishi yoki haqorat qilishi oqibatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga quyidagi sabablarga ko'ra o'yinda o'yinchiga qizil kartochka beriladi: Futbolda o'yinchi tomonidan o'yin qoidasining jiddiy buzilishi; o'yinchi tomonidan tajovuzkor harakat yoki tartibsizlik qilinishi; o'yinchi tomonidan raqib yuziga tuflash yoki boshqa shunga o'xshash xatti – harakatlar; raqib o'yinchisining gol kiritishiga unga nisbatan o'yin qoidasini buzgan holda xalaqit berib, uni gol urish imkoniyatidan mahrum qilganda yoki qo'l bilan atayin o'ynaganda (darvozabonlar o'z jarima maydonlari ichida bo'lgan vaqtida bundan istisno); o'yinchi raqib darvozasi tomon harakatlanganida yoki gol urish imkoniyatini qo'pol buzib, uni mahrum qilsa, bunda hakam tomonidan erkin zarba berish yoki jarima to'p belgilash yoki 11 metrlik masofadan darvozaga zarba berishi amalga oshiriladi; o'yinchini kamsitadigan, xafa qiladigan va boshqa shunga o'xshash so'zlarni aytganda yoki raqib o'yinchisi bilan o'zaro aytishuvlar yoki unga nisbatan qo'pol xatti-harakatlar, imo-ishoralar va boshqalar uchun; o'yin davomida ikkinchi sariq kartochka bilan jazolanganda.

QISQARTIRILGAN MUSOBAQALAR – bir necha soat mobaynida o‘tkaziladi. Ular, odatda, bayram kunlariga va sport mavsumining ochilish yoki yopilish kunlariga rejalashtiriladi.

QTSh – Qayta ta’mirlangan suzish havzalari

QOIDALAR – musobaqalarni o‘tkazishning asosiy shartlarini belgilaydigan qoidalar.

QURA TASHLASH (jerebyovka) – musobaqalarga qatnashuvchi jamoalarning maydon tomonlarini va ma’lum tartiblarni tanlashi.

QO‘SHIB BERILGAN VAQT – quyidagi holatlarga ketgan vaqt ikki bo‘limning har qaysisiga qo‘shib beriladi: o‘yinchilarni almashtirishga; o‘yinchining jarohatini jiddiyligini aniqlashga; jarohatlangan o‘yinchilarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga; qasddan o‘yin vaqtini cho‘zish. Qo‘shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

QO‘SHIMCHA VAQT – o‘yinining asosiy va qo‘shib berilgan vaqtdan tashqari beriladigan vaqt ya’ni *ekstra-taym*. Asosan o‘yinining g‘olibini aniqlash yoki ikki o‘yin hisobiga ko‘ra g‘olibni aniqlash maqsadida belgilanadi. Qo‘shimcha vaqt – ikki bo‘limdan iborat, har bir bo‘lim 15 minutdan o‘ynaladi. Undan tashqari har bir bo‘lim uchun vaqt qo‘shilib berilishi mumkin.

LIBERO – italyan atamalariga ko‘ra “tozalovchi” ma’nosini bildiradi, bu himoya vaqtida o‘z kasbdoshlari o‘rnini bo‘sh qoldirmaslikka harakat qiladi.

LIDER – bu mamlakatda yoki dunyoda eng kuchli bo‘lgan, chempionat jadvalining boshida turgan jamoa. Bu ibora terma jamoa yoki klubning yetakchi o‘yinchilariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Yuqori o‘yin mahoratini ko‘rsata oluvchi, natijaga olib keluvchi kombinatsiyalarni tuza oluvchi forfard (yetakchi, oldingi) o‘yinchi hujum lideri deyiladi.

MASHG‘ULOT – bu olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi. Mashg‘ulotning asosiy mazmuni - texnik usullarni taktikadagi individual, grupp va jamoa harakatlarini takomillashtirishdan, jismoniy, axloqiy va irodaviy xislatlarni rivojlantirishdan iborat. Sport mashg‘uloti bu boshqarish metodi asosida tizimli tarzda sportchilar tayyorlashdir.

MAHALLIY NAZORAT – Bitta yoki bir nechta ko‘rsatkichlarda foydalanilishga asoslangan ya’ni, harakat funksiyalarini, alohida funksional tizimining imkoniyatlarini tor tomonlarini baholashga yo‘l qo‘yishdir. Chuqurlashtirilgan nazorat odatda bosqich holati amaliyotida ishlatiladi. Tanlash va mahalliy nazorat kundalik va amaliy nazoratda ishlatiladi. Nazorat usul va vositalardan tashqari, ijtimoiy psixologik va medistina-biologik xarakterda bo‘ladi.

MIKROSIKL – sport turlarining kichik mashg‘ulotlar siklidan tashkil topgan bo‘lib, tarkibi 5 – 10 ta mashg‘ulotlar mashqlaridan iborat hisoblanadi. O‘z navbatida, mikrostiklni rejalashtirishda haftalik oraliq davrdan foydalaniladi.

MO‘T – musobaqa o‘tkazayotgan tashkilot.

MEZOSIKL (BOSQICH) – sport turlarining yillik tayyorgarligi davomida 4 – 8 haftadan tashkil topgan (*mikrosikllar*) mashg‘ulotlar sikli bo‘lib, uning asosiy vazifasi – sportchilarda bitta yoki ikkita aralash holatdagi maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan tashkil topadi.

MUSOBAQANING BOSH KOTIBI – musobaqaning barcha bayonnomalarni tayyorlash va yuritish uchun, ishtirokchilardan arizalarni qabul qilish, musobaqa yakunlarini amalga oshirish javobgar bo‘lgan hakam hisoblanadi.

MUSOBAQANING BOSH HAKAMI – musobaqaning tayyorlanishi, tashkil qilinishi va to‘g‘ri tartibda o‘tkazilishi uchun javobgar bo‘lgan, hakamlar brigadasi faoliyatini nazorat qiluvchi, musobaqaning yakunlarini amalga oshiruvchi hakam hisoblanadi.

MEDISINALI-BIOLOGIK NAZORAT - Sog‘ligini, funksional tizimlari imkoniyatlarini, alohida organlar va mexanizmlarni, musobaqa faoliyatidagi asosiy mashg‘ulotlarni olib boruvchi yuklamalarni ko‘rib chiqadi. Hozirgi vaqtda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining turli xil vositalari, usullari qo‘llanilayotgangani uchun oxir oqibatda «majmuaviy nazorat» tushunchasi paydo bo‘lishiga olib keldi. Majmuaviy nazorat musobaqa faoliyatida va mashqlar jarayonida sportchining har tomonlama tayyorgarligini ta’minlaydi.

MURAKKAB REAKSIYA - tanlay olish reakstiyasidir. Oldindan belgilangan harakatni bajarish uchun bir necha signal ichidan shartlangani tanlab olinadi yoki bir

signalga oldindan belgilangan bir necha harakatdan kelishib olinganini bajarish tushuniladi.

NIZOM – O‘zbekiston hududida sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish uchun rasmiy qoidalar.

NP – nazorat punkti, ishtirokchilarning yig‘ilish joyi.

OZIB ChARChASh - unga uchragan kishi gavdasini qurigan va kovjiraganrok sezadi.

OGOHLANTIRISH: 1) o‘yin qoidasini buzgan o‘yinchiga hakam tomonidan beriladigan og‘zaki ogohlantirish; 2) hakam tomonidan sariq kartochka ko‘rsatilishi.

OFK – Osiyo futbol konfederatsiyasi.

OFSAYD – o‘yindan tashqari holat.

OXIRGI JAZO UMIDI – o‘yinchi yugurayotganda raqib darvozasi tomon gol urish imkoniyati yaxshi bir vaziyatda raqibi qoidani qo‘pol buzib, uni goldan mahrum qilsa, bunda hakam tomonidan erkin zarba berish yoki 11 metrlik masofadan darvozaga jarima zarba beriladi yoki qizil kartochka ko‘rsatilib, o‘yin qoidasini buzgan o‘yinchi maydondan chetlatiladi.

PENALTI - (inglizcha “penaltu” – jazolash, “penaltu kick”, – jarima zarba) – futbolda darvoza chizig‘idan, maxsus darvoza tomon belgilanadigan zarba, faqatgina darvozabon tomonidan himoyalangan, 11 metrli belgidan tepiladi.

PORTLASH KUCHI – deb, qisqa vaqt ichida katta kuch ko‘rsata olishlik qobiliyatidir.

PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK – yengil atletikachining sport tayyorgarligining bitta jihati bo‘lib, sportchida ma‘naviy – ahloqiy – iroda sifatlarining rivojlantirilishiga yo‘naltiriladi, shuningdek uning muvozanatlashgan holatda bo‘lishni o‘zlashtirishi, sport janglarini sovuqqonlik bilan o‘tkazishi, o‘quv – mashg‘ulotlar va musobaqa faoliyatida qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga qaratiladi.

SAKRASH – odamning vertikal yoki gorizontal holatdagi to‘siqni oshib o‘tishi usuli hisoblanadi.

SARIQ KARTOChKA – futbol va boshqa sport turida o‘yinchiga ogohlantiruvchi jazo belgisini bildiradigan o‘yinni boshqarayotgan hakam qarori. Bu kartochka o‘yinchi

tomonidan quyidagi o'yin qoidalari buzilgan paytda hakam tomonidan o'yinchiga ko'rsatiladi: Futbolchi harakatidagi shartga xiloflik paytida; hakam ko'rsatmasi, qarori bilan rozi bo'lmagan, o'yinchi tomonidan noroziliklari (aytilgan so'zi yoki imo-ishoralari)ni bildirishi va namoyish etishida; o'yinchi tomonidan o'yin qoidasining muntazam buzilganda; o'yinda o'yin vaqti boshlanishini atayin cho'zgan o'yinchiga; o'yinda, burchak to'pi, jarima yoki erkin zarba vaqtida kerakli masofada turishga rioya qilmagan o'yinchiga; hakam ruxsatisiz maydonga tushgan yoki maydondan chiqqan o'yinchiga; hakam ruxsatisiz maydondan o'zboshimchalik bilan chiqib ketgan o'yinchiga.

SPORT O'YINLARI MAYDONI (stadion) – o'yin o'tkaziladigan sport inshoot joyi.

SPORT FORMASI – bu nafaqat ekipirovka. O'yinchi tayyorgarligining fiziologik holati va uning tayyorgarlik bosqichi ham sport formasi deyiladi. Bu asosan uning jismoniy holati va mahoratining bir ko'rinishi. Mashg'ulot hamda musobaqalarda ancha vaqtgacha ishtirok etmaslik natijasida futbolchi o'zining sport formasini yo'qotib qo'yadi.

STANDART VAZIYATLAR – o'yinning erkin, jarima yoki burchak zarbasi, autdan tepish kabi elementlari uchun umumiy nomlanish. Ular uchun, bu elementlar sodir bo'lganda o'yinni to'xtatish uchun hakam tomonidan hushtak chalinishi - umumiy holatdir. Bunda, jamoa o'yinchilariga, tayyorlanish mashqlarida bajarilgan, oldindan ma'lum jadval bo'yicha maydonda joylashish imkoniyati beriladi. Futbolchilar bu imkoniyatdan o'zlari uchun maksimal darajada foydalanishga intilishadi.

SB – sport bazasi.

SUN - Sport ustaligiga nomzod

SU - Sport ustasi

TANLANGAN NAZORAT - Ish qobiliyati va o'quv mashq jarayoning yoki tayyorgarlikning qaysidir tomonini ko'rsatuvchilar guruhi yordamida baholanadi.

TASHQI KUCH – inson jismiga tashqaridan ta'sir qiladigan kuchlar: a) tananing o'z og'irligi (vazni)dan vujudga keladigan kuch; b) tayanish reakstiyasi kuchlari; v) tashqi

ta'sir qarshiligi (suv, havo)ni engish va jisman tashqi ta'sirga qarshi (yakka kurashlar) kuch namoyon qilish, inerstiya kuchi va boshqalar.

TAYYORGARLIK DAVRI – sportchilarning yillik tayyorgarlik davrida mashg'ulotlar sikli bo'lib, 3 – 4 ta bosqichdan (*makrostikllar*) tashkil topadi va sporchida maxsus jismoniy sifatlar rivojlantirilishi va uning sport formasiga kirishiga yo'naltiriladi.

TAYM (bo'lim) – futbol o'yinining ikkidan bir qismi. Har bir taym 45 minutdan iborat. O'yin – qoida va hakam tomonidan qo'shimcha vaqt qo'shilishi bilan o'tkazilishi muqarrar.

TAKTIK TIZIM – har bir o'yinchining alohida xususiyatlari asosida futbol maydonida to'g'ri joylashtirilgan holda jamoa bo'lib o'ynash xarkatlarini tashkil etishdir. Taktik tizim futbol o'yini taraqiyotida bir necha bor o'zgarib kelgan. Taktik tizimning birinchi ko'rinishlari jamoalarda 2-3-5 tizimida qo'llanilgan. Ushbu tizimni tarix manbalarida italyancha tizim yoki bo'lmasa avstriya jamoalarning tizimi deb yuritilgan.

TAKTIKA – o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarini tashkil qilishi, ya'ni jamoa futbolchilarning muayyan rejaga binoan ayni shu muayyan raqib bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarini tushunish kerak.

TANAFFUS – o'yin taymlari oralig'idagi vaqt.

TEZKOR - kuch (dinamik kuch) - tez bajariladigan harakatlarda. Tezkor - kuch 2 ga bo'linadi: a) yenguvchi va b) yengiluvchi (amortizastion kuch)

TEZKORLIK - deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reakstiyasining vaqtini belgilovchi funkstional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi.

TEXNIKA - grekcha so'z bo'lib «bajara olish san'ati» degan ma'noni bildiradi. Jismoniy mashk texnikasi doim o'zgarib turadi va takomillashadi. Takomillashgan harakat texnikasi yuqori natija ko'rsatish garovi bo'lib unga sportchilarning tinimsiz ter to'kishi orkali erishiladi. Sportchining jismoniy tayyorgarligini ortishi yoki uning gavdasi tuzilishi (anatomiyasi), boshqacha aytganda jismoniy rivojlanganlikni ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarning turli-tumanligi (son suyagini kaltali yoki uzunligi, elka suyagi o'lchamining turli xilligi va h.k.) sport turi – jismoniy mashqlar bajarish texnikasini

asosini uning zvenolari yoki detallarini o'zgarishiga, almashishiga sabab bo'lishi mumkin.

TO'P – futbol o'yini uchun sport anjomi. To'p – charm yoki shunga o'xshash xom-ashyodan tayyorlanib yumaloq shaklga ega bo'lishi kerak, To'pni tayyorlashda o'yinchilarga shikast yetkazadigan materialdan foydalanishga ruxsat etilmaydi. To'p aylanasi uzunligi 68- 71 sm, o'yin boshida uning og'irligi 400-450 g. bo'lib, ichidagi havo bosimi dengiz satxida 0,6-1,1 atm. (600-1100 g. sm²) bo'lishi kerak. O'yin paytida to'p faqat hakamning ruxsati bilangina almashtirilishi mumkin.

FAHRIYLAR (VETERAN) – ayrim sport turlarida 35 yoshdan katta bo'lgan sportchilar (erkak va ayollar) hisoblanadi.

FINAL – kubok uchun o'tkaziladigan musobaqalarda ikkita raqib jamoaning hal qiluvchi uchrashuvi. Shuningdek bu ta'rifni, oldindan o'tkazilgan o'yinlardan yoki malaka (kvalifikatsion) o'yinlaridan keyin (masalan, dunyo chempionatining final bosqichi) keladigan bellashuvlariga tegishli deb ham hisoblash mumkin.

FINT – raqibni chalkashtirish, uni aldash maqsadida bajariladigan texnik element.

FIFA – futbol assotsiatsiyalarining xalqaro federatsiyasi, futbol musobaqalarini nazorat qiluvchi bosh tashkilot. O'z tarixini 21-may 1904-yildan, Frantsiyaning poytaxti Parijda oltita Yevropa mamlakatlarining: Belgiya, Gollandiya, Frantsiya, Shvetsariya, Daniya va Shvetsiya funktsionerlari to'plangan vaqtdan boshlagan. Shu vaqtdan beri FIFA chempionatlarni ham o'z ichiga olgan yirik futbol turnirlarini o'tkazishga javob beradi. FIFA ning shtab-kvartirasi Shvetsariyaning Tsyurix shahrida joylashgan.

FOL (ingliz. foul) – o'yin qoidasining buzilishi. Mayda fol taktikasi bilan provokatsiya (ig'vo) orqali qo'pollik qilishga, majbur qildilar (ingl. foul play tirriq, g'irrom o'yin - qo'pol o'yinni bildiruvchi) atama, masalan, futbolda - qo'pol turtish, chalish, raqibga atayin zarba berish va hokazo

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VI. FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. T., "O'zbekiston", 2015 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. T., "O'zbekiston", 2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. T., "O'zbekiston", 2018 y.
4. Riess S. The American sporting experience: a historical anthology of sport in America. N.Y.: Leisure Press, 2014.
5. "Quality physical education" Unesco 2015 Published by the UN educational scientific and cultural organization. Ms Nansy Mclenan and Mc Jannine Thompson.
6. Michael A. Leeds, Peter von Allmen The Economics of Sports. USA. 2015.
7. Presnyakov M.V. Prinsip svobodni truda v professionalnom sporte // Trudovoye pravo. 2015. № 8;
8. United States Olympic Training Center Colorado SpringsCdURL: <http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-colorado-springs>
9. United States Olympic Training Center Chula Vista <http://www.teamusa.org/about-usoc/u-s-olympic-training-center-chula-vista>.
10. U.S. Olympic Training Center Lake Placid<http://www.teamusa.org/aboutusoc/u-s-olympic-training-center-lake-placid>
11. Sports Science Institute of North Africa, Newlands URL: <http://www.ssis.com>

Internet WEB sayt materiallari

12. <http://www.uzreport.com>
13. <http://www.content.sport.ru>
14. <http://www.press-service.uz>
15. <http://www.uz-djti.uz>
16. [http:// www.olympic.uz](http://www.olympic.uz)

17. [http:// www.sports.uz](http://www.sports.uz)

18. [http:// www. minsport.uz](http://www.minsport.uz)

